

## FRANSIYA VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI

*Elmurodova Aziza - O'zDJTU Talabasi  
Yunusova Sohiba - O'zDJTU O'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fransiya haqida yoritilgan. Bu maqoladan biz Fransiya va uning tarixi, aholisi, xo'jaligi, madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Departament, bo'g'ozlar, elzas va lotaring, Bourbonlar, "Ateney" teatri, Buyuk fransuz inqilobi.

**Abstract:** This article describes information about France. From this article, we will learn about France and its history, population, economy, and culture.

**Key words:** Department, Straits, Alsace and Lorraine, Bourbons, "Athene" theater, Great French Revolution.

Fransiya: Rasmiy nomi Fransiya Respublikasi (fransuzcha: République française) — G'arbiy Yevropadagi davlat. G'arbda va shimolda Atlantika okeani hamda La-Mansh bo'g'ozi, janubida O'rta dengiz bilan o'ralgan. Maydoni: 674687 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 68 088 924 million kishi (2023). Poytaxti — Parij shahri. Parij-Fransiyaning eng katta shahri va poytaxti hisoblanadi. Ma'muriy jihatdan 22 region (viloyat), 96 departamentga bo'lingan. Fransiya tarkibida dengiz orti departamentlari (Gvadelupa, Martinika, Gviana, Reyunion), dengiz orti hududlari (Taiti, Yangi Kaledoniya, Fransiya Polineziyasi, Tinch okeandagi Uollis va Futuna orollari va boshqalar), hududiy birliklar (Mayotta va SenPyer va Mikelon) bor.

Aholisi: Aholisining 90 % dan ko'prog'i fransuzlar; shuningdek, elzas va lotaring, katalon, breton, flamand va basklar ham yashaydi. 3,5 mln. muhojir (jazoir, portugal, italyan, ispan, arman va boshqalar) bor. 4 mln. musulmon istiqomat qiladi. Rasmiy tili — fransuz tili. Bundan tashqari, bir qancha mahalliy shevalar ham mavjud. Shahar aholisi 73 %. Aholining 80 % xristian (katolik), 5 % ga yaqini musulmon, 2 % protestant, 1 % yahudiy. Yirik shaharlari: Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nitssa, Nant, Strasburg, Bordo, Monpelye, Lill.

Fransiya tarixi: Hududida odam juda qadim zamondan, taxminan 1 mln. yildan buyon yashab keladi. Miloddan avvalgi 6—5-asrlarda Fransiya hududining deyarli barcha qismida kelt qabilalari (rimliklar ularni gallar, mamlakatni Galliya deb atashgan) yashagan. Miloddan avvalgi 2-asr oxiri — 1-asr Urtalarida Galliyani rimliklar bosib oldi. Milodiy 2—4-asrlarda aholi o'rtasida xristianlik tarqaldi, romanlashtirish natijasida lotin tili kelt tillarini siqib chiqardi. 3—6-asrlarda Galliyani german qabilalari (vestgotlar, burgundlar, franklar) bosib olib, uning xududida bir qancha davlatlarni tashkil qildi. Ular orasida eng kattasi Frank davlati edi ("Fransiya" franklar nomidan kelib chiqqan). Karolinglar imperiyasining parchalanishi (843) natijasida G'arbiy Frank qirolligi tashkil topdi. Shu davrdan Fransiya mustaqil davlat bo'lib qoldi. 10-asrdan mamlakat "Fransiya" deb atala boshladi. 1302-yil dastlabki Bosh shtatlar chaqirilib, tabaqali monarxiya o'rnatildi. Fransiya bilan Angliya urtasida bo'lган Yuz yillik urush (1337—1453) natijasida ishlab chiqarish va savdo keskin kamayди, xalq ommasining ahvoli og'irlashib, Jakeriya (1358) va xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. 15-asr 2yarmida Fransiya iqtisodiyoti astasekin qayta tiklandi, qirol hokimiyyati mustahkamlandi. 16—17-asrlardan iqtisodiy rivojlanish davri boshlandi. Fransiya qirollari G'arbiy Yevropada o'z siyosiy ta'sirini o'rnatishga uringan Gabsburglar bilan uzoq muddat kurash olib bordilar (qarang O'ttiz yillik urush). 17-asrga kelib Fransiya mustamlakachilik siyosatini boshladi: Amerika (Kanada, VestIndiya)



va Hindistonning bir qismini bosib oldi. 17-asrning 2yarmida Fransiya G'arbiy Yevropaning eng kuchli davlatiga aylandi. Ammo Ispaniya merosi uchun bo'lib o'tgan urush (1701 — 1714) va nihoyat Yetti yillik urush (1756—1763) natijasida Fransyaning Shimoliy Amerika (Kanada va boshqalar) hamda Hindistondagi deyarli barcha mustamlakalari Angliyaga o'tdi. 16—17-asrlarda fransuz millati shakllandi, shimoliy fransuz tili yagona til sifatida keng tarqaddi. 18-asr oxirida o'tgan Buyuk fransuz inqilobi natijasida, ayniqsa, uning cho'qqisi bo'lgan yakobinchilar diktaturasi davrida absolyutizm munosabatlari yemirildi. Yangi saylangan Milliy konvent 1792-yil 22-sentabrda Fransiyada respublika tuzumini o'rnatdi. Konvent 1793-yil 24-iyunda demokratik konstitutsiyani qabul qildi. Aksilinqilobiy termidor Konvent (1794—1795) va Direktoriya rejimi (1795—1799) dan so'ng Napoleon I Bonapartning Birinchi imperiya shaklidagi harbiy diktaturasi (dastlab konsullik, 1804-yildan imperiya) urnatiddi. Napoleon davrida Fransiya kupgina bosqinchilik urushlarini olib bordi, Fransiya hududi birmuncha kengayib, Yevropada Fransiyaga tamomila qaram bulgan davlatlar paydo bo'ldi. Ammo shunga qaramay, Fransyaning Yevropada o'z hukmonligini o'rnatishga bo'lgan intilishi mag'lubiyatga uchradi. 1814—1815 va 1815—1830-yillarda Burbonlar monarxiyasi qayta tiklandi. 1815-yil martda Napoleon yana hokimiyatni egalladi, yuz kundan keyin Waterloo yonidagi jangda (1815-yil 18-iyun) u mag'lubiyatga uchragach, Parij sulhiga muvofiq, Fransiya 1790 y.gi chegarasiga qaytarildi. 1830-yil Iyul inqilobi natijasida Burbonlar sulolasini ag'darib tashlandi. Fransiyada monarxiya vujudga keldi, orleanlik gersog Lui Filipp qirol deb e'lon qilindi.

Xo'jaligi: Fransiya — yuksak darajada rivojlangan industrialagrар mamlakat. Jahondagi eng rivojlangan yetti davlatdan biri. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 16,9 %, qishloq xo'jaligi, o'rmon, baliq xo'jaligining ulushi 2,7 %., xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 80,4 % ni tashkil etadi (2022).

Madaniyati: 1980-yillardan Fransiya me'morligida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Xususan, xorijiy me'morlarning g'oyalariiga keng yo'l ochib berildi. Luvr muzeyi amerikalik me'mor Mario Pey tomonidan to'liq qayta rekonstruksiya qilindi. Shishadan yasalgan piramida Luvrning ramziga aylandi. Keyingi-yillarda yaratilgan me'moriy inshootlardan Parij shahridagi SenLazar vokzali perronidagi Arman kompozitsiyasi (1985), P. Picasso sharafiga qurilgan Sezar kompozitsiyasi (1985), Sen Jermen oroldagi Jan Dyubyuffe haykallari bilan bezalgan minora (1988), "Ateney" teatridagi rassom JanPyer Shamba tomonidan chizilgan asarlar (1989) ni ko'rsatish mumkin.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Carls, Alice-Catherine. "France". in World Press Encyclopedia, edited by Amanda C. Quick, (2-nashr, 1-jild, Gale, 2003), pp. 314-337. online coverage of press and media.
2. Chabal, Emile, ed. France since the 1970s: History, Politics and Memory in an Age of Uncertainty (2015) Excerpt.
3. Атакоджаева, Г. А., Турсунбаев, А. К., & Собиров, Х. Г. (2017). Состояние центральной и внутрисердечной гемодинамики при остром коронарном синдроме. Молодой ученый, (4), 239-245.
4. Gildea, Robert. France Since 1945 (2-nashr. Oxford University Press, 2002).
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fransiya>

